

ZAMONAVIY JAMIYATDA AXLOQSIZLIK MASALALARI

Zoyirova Gulnoza Husniddin qizi

Samarqand Davlat Universiteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abbasova Maftuna Subhonovna

Samarqand Davlat Universiteti dotsenti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamoniy jamiyatdagi axloqiy inqiroz va uning ijtimoiy ildizlari Entoni Giddensni, Islom Karimov hamda "liderlar kitobi" g'oyalari asosida tahlil qilindi. Entoni Giddens asarida modern jamiyatning tezkor ozgarishlari, texnologik taraqqiyot va qadriyatlar zaiflashayotganini ta'kidlaydi. Islom Karimovning "Yuksak manaviyat yengilmas kuch" asarida esa axloqsizlikni millat ma'naviy tanazzulining eng xavfli korinishi sifatida baholab, jamiyat taraqqiyoti faqat yuksak axloq, vijdon, or-nomus va mas'uliyat bilan bog'liqligini uqtiradi. "Liderlar" kitobida esa yetakchilarning shaxsiy namunasi axloqiy muhitga ta'siriochob berilgan. Shunday qilib, uch asar g'oyalari uyg'un tarzda jamiyatdagi axloqsizlikning asosiy sabablari – ma'naviy bo'shliq, tarbiya zaifligi va individualizm kuchayishi ekanini korsatadi. Axloqiy qadriyatlarni tiklash esa har bir insonning ichki mas'uliyatiga, ta'lim-tarbiya tizimi va yetakchilar ibratiga tayanadi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, axloq, iymon, qadriyat, odob, oila, jamiyat, bilim, din, iroda.*

Axloqdan mahrum taraqqiyot-vayronalikning boshqa korinishidi

Jaloliddin Rumi

Ma'naviyatli jamiyat – barqaror va taraqqiyot topgan jamiyat; Ma'naviyatning hayotimizdagi o'rni haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish anglash kerak. Shuning uchun ham o'zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu haqda oylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin. Umuman olganda, insoniyat tarixi ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanligini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik, mehr-oqibat, baxt-saodat, jamiyat yuksalishi, taraqqiyot, yurt rivojlanishi va hayotda o'z o'rnini toppish qiyin ekanligini anglash darkor. Mening nazarimda, "ma'naviyat" tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi. Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulgayishga chorlaydigan, irodasini baquvvat qiladigan, vijdonini uygotadigan beqiyos kuch desak, adashmagan bolamiz. Bir so'z zahirida shunda ma'no bor-u, lekin ayrim tuban-axloqsiz, ma'naviyat so'zining nima ekanligini bilmay

yashaydigan ongsiz, nokas insonlar mavjud. Shuning uchun ma'naviyat tushunchasini takror-takror aytish kerakki, ota-onalar, ustoz-murabbiylar jamiyat, ma'naviyatni anglagan kishilar yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bolmasligi kerak. Chunki Yangi O'zbekiston har doim, kelajak yoshlar qolida, bugungi o'sib kelayotgan kelajak qay tarzda bolsa, davlatimiz ravnaqi, gullab-yashnashi, rivoj topishi, yuksalishi, yetakchi davlatga aylanishi ular qolida. Nega deganda, yoshlar tirishqoqlik bilan o'qib, izlanib, shamol singari tez esa ya'ni yangi kashfiyotlar yarata olsa, Yangi O'zbekiston mukammal, qiyosi-yu tengi yo'q yagona davlatga aylanadi. Zero, ma'naviyat insoniyat kozgusi hisoblanadi.

Axloqning jamiyatda buzilishining asosiy sabablari;

Birinchidan;

-Ma'naviy va tarbiyaviy yetishmovchilik ya'ni oilada maktabda yoki jamiyatdagi axloqiy tarbiya yetishmasligi, yosh avlodlarning axloq qoidalari va milliy-tarixiy qadriyatlarimiz haqida bilmasligi.

Ikkinchidan;

-Ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik-ya'ni iqtisodiy muammolar, kambagallik, ish bilan ta'minlanmaslik. Odamlarni axloqdan tarbiyadan cheklashtiradi va yana adolatsizlik, korrupsiya va zoravonlik jamiyatda ishonchsizlik va g'azabni kuchaytirishga olib keladi.

Uchinchidan;

-Madaniyatning pasayishi va axloqiy qadriyatlarning yo'qolishi bir so'z bilan aytganda, zamonaviy hayotda milliy-diniy qadriyatlarimizning poymol bo'lishi va omma tarbiyasiga putur yetkazadigan noto'g'ri kinolar, ma'lumotlar hisoblanadi.

Tortinchidan;

-Oilaviy muhitning salbiy ta'siri ta'bir joizki har 10 oiladan 1tasida bu holatlar yuzaga keladi ya'ni bular oilada urush, nizo, zoravonlik, e'tiborsizlik bolalarda axloqiy jihatdan sust bolishiga boladi va shu bilan bir qatorda ijtimoiy – iqtisodiy ahvol ham katta ahamiyatga ega

Beshinchidan;

-Shaxsiy manfaat va egoizmning ustunligi – shubhasiz, ba'zi odamlar oz manfaatlarini jamiyat va boshqalar manfaatidan yuqori qoyadi va bu albatta, ishonchsizlik, yolg'on, xiyonat, ochkoqlikka katta sabab bo'la oladi desam adashmagan bolaman.

Oltinchidan;

-Qonun va tartib –qoidalarining buzilishi bu albatta jamiyatda korrupsiyaga, zoravonlikka, axloqiy me'yorlarga juda katta ta'sir etadi.

Yettinchidan;

-Eng asosiysi, jamiyatni tanazzulga yuz tutishiga sabab bolishning 99,9 foizini tashkil etuvchi sabab bu Texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri ya'ni internetda

notog'ri ma'lumotlar, salbiy axborot, g'arazli content, onlayn anonimlik odamlarni odob-axloqdan chetlashishiga katta ahamiyat kasb etadi. Axloqni jamiyatda rivojlantirish va mustahkamlash uchun quyidagi choralarni qollash lozim.

1. Oilada axloqiy tarbiya berish;

Zero, oila jamiyat hujayrasi; bolalarga kichik yoshdan odob-axloq qoidalarini o'rgatish, hurmat, halollik, sabr-toqat kabi fazilztlarni singdirish; oila a'zolari orasida yaxshi munosabatlar, mehr-oqibat, odamiylik, saxiylikni rivojlantirish.

2. Maktab va ta'lim muassasalarida axloqiy ta'limni kuchaytirish;

O'qituvchilar uchun axloqiy tarbiya metodikalarini ishlab chiqish va joriy etish, talabalar va o'quvchilarni ma'naviy va axloqiy rivojlantirish uchun ko'ngilli tadbirlar, klub va guruhlar tashkil etish.

3. Shaxsiy mas'uliyatni oshirish.

Har bir inson o'zining axloqiy javobgarligini anglashi, o'zini va atrofdagilarni hurmat qilishi zarur va o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilish va boshqalarga shunday namuna bo'lish.

4. Ko'ngilli jamiyat tashkilotlari va harakatlarni qo'llab-quvvatlash.

Axloqiy va ma'naviy tarbiyaga qaratilgan nodavlat tashkilotlar, fondlar va harakatlarni rag'batlantirish.

Jamiyatda ko'ngilli ishlar, ijtimoiy yordam va madaniy tadbirlar tashkil etish.

5. Ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy madaniyatni rivojlantirish.

Onlayn muhitda etik qoidalarga rioya qilishni joriy etish va noto'g'ri ma'lumotlarga qarshi kurashish.

Axloqiy madaniyatni oshirish uchun raqamli platformalarda foydali va tarbiyali content yaratish.

XULOSA;

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, axloq – har qanday jamiyatning poydevori va uning barqarorligi uchun eng muhim omillardan biridir. Jamiyatda axloqiy qadriyatlarning zaiflashishi yoki buzilishi turli ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu jumladan, ishonchsizlik, adolatsizlik, zo'ravonlik va ma'naviyt inqirozi. Shu bois, axloqni rivojlantirish uchun avvalo har bir insonning shaxsiy mas'uliyatini oshirish, oilada va ta'lim muassasalarida mustahkam axloqiy tarbiya berish, davlat va jamiyat darajasida esa axloqiy qadriyatlarni himoya qilish va targ'ib qilish muhim durb o'ylayman. Zamonaviy dunyoda axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish nafaqat tarixiy va madaniy merosga hurmat balki barqaror ijtimoiy taraqqiyotning garovidir. Jamiyatdagi barcha qatlamlar – oiladan tortib davlatgacha axloqiy me'yorlarni, madaniyatni va albatta bilimni mustahkamlashi darkor. Yakuniy so'z o'rnida, insoniyat tafakkuri xazinasidan eng muhim va

dolzarb bo'lgan bir hikmatni keltirishni lozim topdim. Qadimgi yunon faylasufi va buyuk matematigi Pifagorning quyidagi so'zlari, jamiyatning asl poydevorini belgilab beradi:

"Odamlar, eng avvalo, ezgu axloqqa ega bo'lishga harakat qiling, zero, axloq qonunning asosidir."

Foydananilgan adabiyotlar;

- 1.Entoni Giddens ‘‘ Sotsiologiya’’ 2002.
- 2.Islom Karimov ; ‘‘Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch ‘’ asari.
- 3.Otabek Xasanov ; ‘‘Liderlar kitobi’’.
- 4.Axloq falsafasi.
- 5.A.Vaxobov.”Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta’minotga kirish”.
- 6.M.G’aniyeva, N.Latipova,I.Negmatov,M.Sherov.